

## AMIR TEMUR DAVRIDA KASBIY LEKSIKA

Abriqulov Panji Kenjayevich

*Termiz Davlar universiteti 2-kurs magistranti*

Y.Ismoilov

*Ilmiy rahbar: dos.*

**Annotation:** *This article focuses on the emergence of the professional lexicon and attempts to highlight the professional lexicon during the time of Amir Temur. Professionals and profession-related words in the work "Temur Tuzuklari" were lexically analyzed. The lexicon of the profession of architecture is discussed.*

**Key words:** *Professions, twelve classes and categories, lexical analysis, lexical units related to professions, architecture*

**Anmerkung:** *Dieser Artikel konzentriert sich auf die Entstehung des Berufslexikons und versucht, das professionelle Lexikon während der Zeit von Amir Temur hervorzuheben. Berufliche und berufsbezogene Wörter im Werk „Temur Tuzuklari“ wurden lexikalisch analysiert. Das Lexikon des Architektenberufs wird besprochen.*

**Schlüsselwörter:** *Berufe, zwölf Klassen und Kategorien, lexikalische Analyse, berufsbezogene lexikalische Einheiten, Architektur*

**Аннотация:** *Данная статья посвящена возникновению профессиональной лексики и попыткам осветить профессиональную лексику во времена Амира Темура. Проведен лексический анализ профессиональных и профессиональных слов в произведении «Темур Тузуклари». Обсуждается лексика профессии архитектора.*

**Ключевые слова:** *Профессии, двенадцать классов и разрядов, лексический анализ, лексические единицы, относящиеся к профессиям, архитектура.*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada kasbga oid leksikaning paydo bo'lishiga to'g'ri kelib, Amir Temur davridagi kasbiy leksika yoritilishiga xarakter qilingan. "Temur tuzuklari" asaridagi kasb egalari va kasbga oid so'zlar liksik tahlil qilingan. Me'morchilik kasbga oid leksika haqida so'z boradi.*

**Tayanch so'zlar:** *Kasblar, o'n ikki tabaqa va toifa,leksik tahlil, kasbga oid leksik birliklar, me'morchilik*

Odam Ato va Momo Havo yer yuziga tushar ekan, bu dunyoning hayot tashvishlari boshlanadi. Bu tashvishlar ularning kundalik hayotidagi ishlari, yumishlari. Bu yumishlar yillar o'tishi mobaynida odamzodning jonajon kasblariga aylanadi. Atropolog olimlarimizning aniqlashisha, neolit davridagi neandertal odamning qabridan buni isbotlaydigan mehnat qurollari topilgan. Chunonchi, "Kundalik ish vaqtini o'z o'rniga qo'ygan ham, neolit asboblarini ishlab chiqargan ham odamzod hisoblanadi, aniqrog'i, mehnat odamzodning vaqt haqidagi tushunchasini shakllantirgan [Dandl, H. (2004): Arbeit und Beruf im historischen Prozess. Studie zur inhaltlichen und formalen Gestaltung des sozialen, politischen, ökonomischen und technologischen Kontextes im Ausstellungskonzept des Modellversuchs „VISUBA“. Materialband 3 zum BLK-

Modellversuch „VISUBA». München] Shundan ma’lum bo’ladiki, odamzodning qorni och qolgan biror yegulik tayyorlab, ochligiga barham berishi uchun oshpazga aylangan. Ustidagi liboslari yupin bo’lgan, qishda sovqatmaylik deb, libos tikgan, tikuvchiga aylangan. Yozda boshidan oftob o’tmasin, yomg’irda usti shalobbo bo’lmasin deb, chayla qurgan, uy qurgan, quruvchiga aylangan. Ba’zan qorni og’rib, issig’i chiqib, tobi qochgan, og’riq zarbidan, yaqinlarini yo’qotishdan qo’rqib nimalardir qilib davolashga uringan, giyoh tergan, tabibga aylangan. Farzandli bo’lish arafasida doya bo’lgan, farzandlari ular bilib-bilmay qilgan xatolarini takrorlamasin deb ularga Alloh tomonidan berilgan ulug’ ne’mat – til orqali tushuntirgan, ta’lim bergan, tarbiya bergan, o’qituvchiga aylangan. Odamzod ko’payib alohida qabilalarga ajralgan. O’zlarini boshqa qabilalardan himoya qilish uchun askarga aylangan. Oralaridan kimnidir boshliq qilgan, kichkina bir davlatga aylangan. Bunga o’xshash misollarning son-sanog’ini keltirish mumkin. Alqissa, inson dunyoga kelar ekan, kasb bilan to’qnashgan, xohlaydimi, xohlamaydimi biror kasb egasi bo’lishga, jilla qursa biror ish qilib yaxshi yashashga harakat qilgan. Shu tariqa o’zi bilmagan holda kasbga oid leksikalarni bir-biriga so’zlagan.

Manbalarga murojaat qilsak, fikrimizga asoslar talaygina. Masalan, Amir Temurning noyob durdonasi - “Temur tuzuklari”ni olaylik. Bu kitob siyosiy, huquqiy asar bo’lishiga qaramasdan bunga yoqqol dalil bo’la oladi. “Temur tuzuklari” asarining boshidan oxirigacha insonlarning biror kasbga ega ekanligi, garchi tilga kam olingan bo’lsa-da, bilinib turadi, shu bilan bir qatorda bir qancha kasbga oid so’zlar tilga olinadi.

Chunonchi, “...o’n ikki tabaqa va toifadagi kishilar bilan mamlakatlarni zabt etdim, ularni idora qildim, Davlat, saltanat ustunlarini o’shalar bilan quvvatlab, majlislarimni shular bilan ziynatladim”. [“Temur tuzuklari” Ikkinchi maqola 86]

Bu o’n ikki tabaqa va toifani shu asarga kirish so’zi sifatida ikki o’g’iz so’z yozgan Bo’rivoy Ahmedov quyidagicha izohlaydi: “Asarda aytilishicha, davlat asosini o’n ikki toifa: 1) sayyidlar, ulomo, mashoyix, fozil kishilar; 2) ishbilarmon, donishmand odamlar; 3) xudojo’y, tarkidunyo qilgan kishilar; 4) no’yonlar (tuman boshlig’i), amirlar, mingboshilar; 5) sipoh va raiyat (soliq to’lovchi xalq); 6) maxsus ishonchli kishilar; 7) vazirlar, sarkotiblar; 8) hakimlar, tabiblar, munajjimlar, muhandislar; 9) tafsir va hadis olimlari; 10) ahli hunar va san’atchilar; 11) so’fiylar; 12) savdogar va sayyohlar tashkil etadi. Uning taqdirini esa, uch narsa: podshoh, xazina va askar hal qiladi” [“Temur tuzuklari”. “Temur tuzuklari” haqida ikki og’iz so’z. 8-9] O’n ikki tabaqa va toifa deyishdan maqsad, o’sha davrda insonlar tabaqa va toifasiga qarab o’z kasb-korlarini bajarishgan.

Yuqoridagilardan shuni bilish mumkinki, maosh oladigan toifadagi kasb egalari ko’pchilikni tashkil qilgan. Bunga, “Turli mamlakatlarning aholisini yo’l-yo’riqqa solish va maosh tayinlash, avliyolar va din peshvolarining mozorlarini tuzatish, vaqf va nazr ishlarini tartibga keltirish tuzugi”da yoqqol guvohi bo’lishimiz mumkin. Bu tuzukda, sayyidlar, ulomo, mashoyix, fuzalo, akobir va ashroflarni aziz tutish, kadxudolar, kalontarlar, dehqon (yer ega)lari va mo’zarionlar (ekin maydonlariga ishlov beruvchilar)ni ko’nglini xushnud etib, o’zlariga qaratish, raiyatni umid va qo’rqinch orasida saqlash, gunohlari va qilmishlariga yarasha jarima solish, unga bo’ysungan mamlakatlarning sayyidlari, olimlari, shayxlari, fozil kishilari, darveshlari, xilvatda o’tiruvchi (zohid)larini suyurg’ol, vazifa va maosh bilan siylash, nafaqat ta’kidlab o’tilgan, balki qonun deb qabul

qilingan. Shu tuzukning oxirida sarkarda Amir Temur gadolarga ham biror kasb berish haqida quyidagilarni buyuradi: “Yana buyurdimki, har bir mamlakat fath etilgach, u yerning gadolarini to’plab, kundalik yemak-ichmaklarini berib, ularga biron vazifa belgilasinlar...”. [“Temur tuzuklari” 161-163]

“Temur tuzuklari”dagi bu qimmatli ma’lumotlarni tilshunoslik nuqtai nazaridan ko’rib chiqadigan bo’lsak va leksik tahlil qiladigan bo’lsak, qanchadan-qancha kasbga oid leksikalar tilga olinganini ko’rishimiz mumkin. Masalan, o’n ikki tabaqa va toifani jadvallarda ko’rib chiqsak, birgina shuning o’zida 27 ta kasbga oid leksik birlik mavjud ekanligini guvohi bo’lamiz.

Toifa va tabaqa	1-leksik birlik	2-leksik birlik	3-leksik birlik	4-leksik birlik
1	Sayyidlar	ulomo	mashoyix	fozil kishilar
2	ishbilarmon odamlar	donishmand odamlar		
3	xudojo’y kishilar	tarkidunyo qilgan kishilar		
4	no’yonlar (tuman boshlig’i)	Amirlar	mingboshilar	
5	sipoh	raiyat (soliq to’lovchi xalq)		
6	maxsus ishonchli kishilar			
7	vazirlar	Sarkotiblar		
8	Hakimlar	Tabiblar	Munajjimlar	muhandislar
9	Tafsir olimlari	hadis olimlari		
10	ahli hunar	san’atchilar		
11	so’fiylar			
12	Savdogarlar	sayyohlar		

Bu leksik birliklarning ba’zilari ma’nodosh bo’lsa-da, lekin ular alohida leksik birlik hisoblanadi.

Muhammad Alining “Gumbazdagi nur” dostonida ham Temuriylar davrida qurilgan Go’ri Amir maqbarasining qurilishida ishtirok etgan me’morlar haqida, uning oldida turib hayol surgan bolakay tilidan quyidagi misralar aytiladi:

Chopar zoti — xuddi zamona!

Chaqmoqday tez u mingan tulpor!

Jam bo’lishdi poytaxtda, mana,

O’n ikki jon, o’n ikki me’mor.

Buxorodan kelmish sangtarosh,

Farg’onalik gilkor ham bunda.

Naqqoshini yuboribdi Shosh,

Xorazmlik ganchkor ham bunda.

Donishmandlar bejiz demaslar:

"Me’mor boshi — palaxmon toshi!"

Ne tong, turli eldan kelsa gar

Muhandisu koshintaroshi? [Muhammad Ali. Amir Temur chamani 23b]

Bu misralardan shuni bilish mumkinki, me’morchilikning o’zida o’sha davrda o’n ikki xil kasb egalari mavjud ekan. Bu o’n ikki xil kasbga oid leksika mavjud degani.

Biz tarixdan bilamizki, Amir Temur buyuk saltanat tuzgan. Buyuk saltanatda esa, minglab kasb egalari bo'lishi tayin. Demak, minglab kasbga oid leksika ham o'sha davrda mavjud bo'lgan.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Amir Temur. Temur tuzuklari / Yoshlar nashriyot uyi. – Toshkent, 2018. – 184 b.
2. Dandl, H. (2004): Arbeit und Beruf im historischen Prozess. Studie zur inhaltlichen und formalen Gestaltung des sozialen, politischen, ökonomischen und technologischen Kontextes im Ausstellungskonzept des Modellversuchs „VISUBA“. Materialband 3 zum BLK-Modellversuch „VISUBA«. München
3. Muhammad Ali. Amir Temur chamani 23b